

IX-XII Asrlarda O'Rta Osiyo Xalqlari Hayoti

Sobirov Jamshidbek¹

Anatatsiya: Maqolada yurtimiz xalqining o'rta asrlardagi madaniy hayoti, etnik guruhi, o'sha davrda xalqimiz orasidan yetishib chiqqan buyuk allomalar, hamda uyg'onish davri vujudga keliishi haqida so'z yuritiladi.

Kalit so'zlar: etnos, migrant, ko'chmanchi, yarim ko'chmanchi, qavm, Samarqand, Buxoro, elat, falsafiy.

Har bir elat ma'lum tarixiy davrda shakllangan. Shu davr ichida bir hududda yashovchi elatlar yoki ularning ayrim guruxlari bir - birlari bilan doimiy iqtisodiy va madaniy jihatdan yaqinlashadilar. Ularning o'zaro yaqinlashish jarayoni ko'pincha bir tilda gapiruvchi qavm - qarindosh, yurtdoshlar orasida mavjud bo'lgan. Etnik jarayonga shu xududda qadimdan yashab kelgan yoki boshqa viloyat, mamlakatlardan ko'chib kelgan (migrantlar) etnoslar yoki ayrim etnik guruxlar ham faol qatnashishlari mumkin bo'lgan. Etnoslarning o'zaro yaqinlashish jarayonida ma'lum bir etnik guruh yoki komponent yetakchi rol o'ynaydi; boshqa etnik guruxlar shu yetakchi guruh atrofida bo'lib, u bilan til va madaniyat jihatidan yaqinlashib, jipslashib boradi. Ammo etnoslarning yaqinlashishi, ularning jipslashishi hamma vaqt ham muvaffaqiyatli bo'lavermaydi. Mamlakatda sodir bo'lgan siyosiy vaziyatlar, ichki nizolar, o'zaro kurashlar etnoslarni bir - birlari bilan yaqinlashishi, jipslashish (konsolidatsiya) jarayonini nihoyasiga yetmasdan tarqalib ketish hollari ham tarixda oz bo'lmagan. Movarounnahrda ko'chib kelgan etnoslar bir necha yillar davomida (yarim ko'chmanchilik va yarim o'troqlikka xos an'anaviy hayotlarini davom qilib) qabila va urug'larga bo'linishi tartibini saqlab qoladilar. Urug' o'z navbatida bir qancha katta va kichik oilalardan tashqil topgan. Qavm - qarindoshlik guruxlari bir yoki bir necha ovulni tashqil qilgan. Qabila urug'chilik tartibi hamma vaqt ham bir xilda, bir tartibda saqlanib qolmagan. Tartib vaqt - vaqti bilan buzulib, ayrim etnik guruxlar qabila va urug' tarkibidan chiqib boshqa qabila va urug'larga qo'shilib ketish hollari ham oz bo'lmagan. Bu jarayon, o'z navbatida, jamoa hayotida mavjud o'zaro munosabatlarni qavm - qarindoshchilik asosida emas, qo'ni - qo'shnicilik asosida olib borilishni kuchaytirgan. Ko'chib kelgan qabilalar bilan Movarounnahrning turg'un aholisi o'rtasidagi farq sezilarli darajada saqlanib qolgan edi. Qabilalarning moddiy hayotida, xo'jaligida va turmush tarzlarida o'tmishdagi ko'chmanchilik asoratlari sezilarli darajada bo'lgan. Ular islom dinini qabul qilgan bo'lsalar ham, lekin islomgacha bo'lgan diniy e'tiqod izlari hanuzgacha sezilarli darajada saqlanib qolgan edi. Bundan tashqari X asrdan boshlab Turkiston o'lkasi me'morchiligida binokorlikda sinchkori imoratlar keng tarqaladi. Yakkasinch va qo'shsinchli binolarning tagsinchlaridan tortib, ustunlari-yu sarroflari va to'sinlarigacha yog'ochlarni payvandlash uslubida qurilib, sinchlarning o'iasi xom g'isht yoki guvalalar bilan urib chiqilgan. Bu tuzilishdagi imoratlar qurish hozirgacha saqlanib keladi. Afrosiyob, Varaxsha, Buxoro va Poykand shahar xarobalarida kovlab ochilgan turar joy qoldiqlaridan ma'lum bo'lishicha, X-XI asrlarda ham paxsa va xom g'ishtdan qurilgan imoratlar shahar me'morchiligida asosiy o'rinni tutgan. IX-XII asr boshlarida me'morchilik bilan birga naqqoshlik va o'ymakorlik san'ati ham ancha rivoj topdi. Imoratni o'ymakor ustun va to'sinlar, devorlarini bo'yoqli yoki ganchkori naqshlar bilan bezash keng tarqaladi. Bu davga kelib naqqoshlik va tasviriy san'at o'zgacha tus oladi. Endilikda u jonli mavjudotlarni tasvirlashdan murakkab, geometrik va islimi gulli naqshlar ishlashga o'tiladi. Naqqoshlik san'atining taraqqiyoti o'z navbatida kulolchilik, miskarlik va zargarlikning ravnaqiga yordam beradi. Samarqand, Buxoro, Toshkent va boshqa shaharlar kulolchilik, raiskarlik va zargarlik rivoj topgan markazga aylanadi. XI- XII asrlarda, ayniqsa sirli sopol buyumlar ishlab chiqarish keng yo'lga qo'yiladi. Bu davr sopol buyumlari nihoyatda yaxshi sifatli bo'lib, chet el mamlakatlariga ham olib chiqilgan. Bu davrda xattotlik xalq san'atining muhim va keng tarqalga. Demokratik islohotlarni chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish davrida Uyg'onish davri allomalarining ijodini ijtimoiy falsafiy, tarixiy nuqtai nazaridan o'rganish, tadqiq qilish, muhim ilmiy amaliy, nazariy ahamiyatga egadir. Mamlakatimizda, o'tmish avlodlarimizning madaniy merosini asos qilib olgan holda, ma'naviy yangilanish sari sobitqadamlik bilan borayotganligimizning boisi ham shunda. Bugungi kunda buyuk davltimiz poydevorini qurishda al-Beruniy, Ibn Sino, Muxammad Xorazmiy, Ahmad Farg'oniy, al-Buxoriy, at-Termiziy, Amir Temur, Ulug'bek, Alisher Navoiy, Bobur Mirzo kabi bobolarimizning bebaho merosi katta axamiyatga egadir. SHuningdek, ularning g'oyalari, qarashlari mustaqil O'zbekistonning milliy mafkurasini shakllantirishda beqiyos muhimdir. Xulossa qilib aytganda birinchi Prezidentimiz Islom Karimov aytganidek, "Milliy mafkuramiz, birinchi navbatda xalqimizning azaliy an'alariga, udumlariga, tiliga, diniga, ruxiyatiga, bir so'z bilan aytganda, milliy qadriyatlarimizga, xalqimizning dunyoqarashi va tafakkuriga asoslanib, shu bilan zamonaviy, umumbashariy, umuminsoniy yutuqlardan oziqlangan, ularni o'zida qamrab olgan holda yurt tinchligi, Vatan ravnaqi, xalq manfaati va farovonligi yo'lida xizmat qilmog'i darkor". SHu bois ushbu mavzuni o'rganish yoshlarimizda ilmiy dunyoqarashni shakllantirish, soxta g'oyalarga ergashib ketmaslikda katta axamiyatga egadir

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Xayrullayev M. O'rta Osiyoda ilk uyg'onish davri madaniyati. - T.: Fan, 1994.

¹ Andijon davlat universiteti Tarix fakulteti 3-kurs talabasi

2. Buyuk siymolar, allomalar (1 – 2 kitob). – T.: Meros, 1995, 1996.
3. Azamat Ziyoy. O‘zbek dalatchiligi tarixi. – Toshkent: Sharq, 2000.
4. Sagdullayev A., Ergashev F. O‘zbekiston tarixi fani bo‘yicha o‘quv qo‘llanma. – T.: Yangi asr avlodi, 2009.
5. Shamsutdinov R., Karimov Sh. Vatan tarixi. 1-qism. – Toshkent: Sharq, 2010